

## TO‘QISHNING MURAKKAB USULLARI

*Namangan viloyatidagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 45-sonli “Nurli maskan” maktab internati texnologiya fani o‘qituvchisi*

**Qaxxorova Zulfiya**

**Annotatsiya:** ushbu dars ishlanmada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda texnologiya fanidan “To‘qishning murakkab usullari” mavzusini o‘qitish texnologiyasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** to‘qish, shakllar, ilmoq, qoida, imkoniyat, harakat, gazlama, gigiyena...

**Ta‘limiy maqsad:** O‘quvchilarga to‘qishning murakkab usullari, ularning ketma-ketligi va tartibi haqida nazariy va amaliy ma’lumotlar ma’lumotlar berish.

**Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalari tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilar tasavvurida to‘qish uchun zaruriy xomashyo va moslamalar, geometrik shakllar to‘qish malakalarni hosil qilish.

**Koreksion maqsad:** O‘quvchilarni ko‘rish imkoniyatlariga qarab barmoq sezgilarini, imkoniyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Bilimlarni mustahkamlovchi. Yangi bilim beruvchi.

**Dars uslubi:** Tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Dars metodi:** “Motivatsiya”, “Kim topqir”, “Buni yodda saqlang”, “Soyabon” o‘yini. “Chapak chal” usullari.

**Darsda jihizi:** tikuvchilik o‘quv xonasi, mehnat ish qurollari va jihozlari, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallar.

T/r	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1.	Tashkiliy qism.	5 daqiqa.
2.	O‘tilgan mavzu va uy vazifasini so‘rash.	7 daqiqa.
3.	Yangi mavzuni tushuntirish va dam olish daqiqasi	18 daqiqa.
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash.	10 daqiqa.
5.	O‘quvchilar bilimini baholash.	3 daqiqa.
6.	Uyga vazifa berish.	2 daqiqa.

### **Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism:** a)Salomlashish; b)Davomatni aniqlash; d)Darsga tayyorgarlik ko‘rish  
e)O‘quvchilar diqqatini darsga qaratish.

**Mashg‘ulotning shiori:**

**Hamisha yaragil xalq  
xizmatiga,  
Bezak bo‘l olam-u, odam  
zotiga.**

( *Nizomiy*

*Ganjaviy*)

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**O‘qib o‘rgangil har bitta hunar  
Hunarmandga keltirar bir kuni foyda**

**“Motivatsiya” usuli** orqali o‘quvchilar diqqati jalg‘tiladi.

Hammangiz ham a’lochi, biri-biridan sara,

Biri-biridan o’tkir, dono o‘g‘il-qizlarsiz.

Xulqingiz shuncha xushki, o‘xshashligi yo‘q sira,

Vatanning istiqboli – kelajagi sizlarsiz.

### S.Zunnunova



**II.O‘tilgan mavzu:** To‘quvchilik mavzusi yuzasidan “**Kim topqir**” usuli orqali savol-javob tashkil etiladi. Shu orqali o‘tilgan mavzu va uyga vazifa mustahkamlanadi.



Uyga bajarilgan amaliy ishlar ko‘rib chiqiladi va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Amaliy mashg‘ulotda tugallanmagan ishning oxiriga yetkazilganini tekshirish.

### III.Yangi mavzu bayoni:


Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati tez suratlarda rivojlanib borayotganligiga qaramay qo‘lda to‘qilgan kiyim va buyumlarga bo‘lgan qiziqish

Har doim yuqori bo‘lgan , chunki inson to‘qish hunarini mukammal egallagan bo‘lsa o‘zining didiga , talabiga mos turli mavsumlar uchun mo‘ljallangan kiyim

va buyumlarni qo‘lda to‘qib olish imkoniyatiga ega. Qo‘lda to‘qish jarayoni ilmoq yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ilmoqdan foydalish bajarayotgan ishning chiroyli chiqish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Ilmoqning yengil metal , yog‘och plasmassadan tayyorlangan turlari mavjud. Ilmoqlar, odatda, 12-15sm uzunlikda, turli yog‘onlikda, ilgich qismi turli (to‘mtoq, o‘tkir, ingichka , yo‘g‘on ) shaklli qilib tayyorlanadi. Ilmoqning yo‘g‘on-ingichkaligi raqam bilan belgilanib , ilmoqning diametri unig raqami hisoblanadi. Masalan, diametri 2mm bo‘lgan ilmoq ikkinchi raqamli va h.k bo‘ladi. To‘qiladigan ingichka-yo‘g‘onligiga moslab ingichga iplar uchun kichik raqamli , o‘tkir uchli, yo‘g‘on iplar uchun raqami yuqori bo‘lgan , tomtoroq uchli ilmoqlar tanlanadi .

**“Buni yodda saqlang” usuli.** Ushbu usul orqali mavzuning muhim va e’tiborli tomonlari yoritiladi.


-Ilmoqda ham xuddi piltakachdagi kabi turli xil kiyim va buyumlarni to‘qish mumkin. Shunningdek, xilma-xil shaklli o‘yinchoqlar, bezak elementlari: tugmachalar, bezak gullar, tasma arqonchalar, to‘rlar tayyorlash mumkin. Ilmoq yodamida tikilgan yoki to‘qilgan kiyimlarning etak qismi yeng va bo‘yin o‘mizlari atrofini tekis, zich, to‘rsimon, bo‘rtma, jimjimador arrasimon ko‘rinishlarda to‘qib, bezash bajarilayotgan ishning yuqori sifatda bo‘lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ilmoq yordamida piltakchalarda to‘qish jarayonida ayrim hollarda tushib qolgan halqalarni ko‘tarish, bir nechta halqalardan bitta halqa to‘qish ancha qulay va oson bajariladi. Ilmoqda to‘qishni o‘rganish piltakachda to‘qishni o‘rganishga nisbatan tez va oson kechadi. Ish oddiy halqa hosil qilishdan boshlanadi. Halqa hosil qilish uchun koptok ipning ichidan tortib bo‘shatiladi, soat millariga teskari yo‘nalishda ipni harakatlantirib , chalishma hosil qilinadi




- So'ng chap qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari uchlari ..... Chalishmaning iplar kesishgan qismidan ushlab turiladi. O'ng qo'lda ..... xuddi qalam ushlagandek, ilmoqni ushlab turib ilmoq uchini chalishma orasiga kiritiladi. Va kalavadan kelayotgan ipni shu chalishma oralig'dan tortib chiqiladi. Shu tariqa havoyi halqa hosil qilinadi

- Ilmoq yordamida chala ustncha, xomaki halqasiz ustunda xomaki halqali ustuncha, bo'rtma yoki hurpaygan ustuncha to'qish usullarini qo'llab, turli ko'rinishdagi to'qimalar hosil qilish mumkin. Endi bu usullarning ayrimlarini bajarishni birma-bir o'rganib chiqamiz.

Siz quyi sinflarda chala ustuncha va xomaki halqasiz ( past ) ustuncha to'qishni o'rgangansiz. Keyingi usullarini to'qishni o'rganish uchun ilmoqda ishlashning eng oddiy usuli - qatorni o'ngdan chapga tomon to'qish qo'llaniladi. Buning uchun navbatdagi qator oxirigacha to'qilgach, to'qima aylantirib olinadi va yangi qator yana o'ngdan chapga tomon to'qiladi. Bunda ..... yon chetlarida milk halqa to'qish lozim bo'ladi. Agar ahamiyat berilsa, zanjir boshidagi birinchi halqa yigirmanchi, zanjir so'ngidagi yigirmanchi



halqa esa birinchi halqa deb hisoblanyapti. Milk halqalari yoki yangi qatorni ko'tarish halqalari. Yangi qatorni to'qishga kirishishdan avval Shu yangi qator



balandligini hosil qilib beruvchi milk halqani to'qib olish shart. Yangi qatorni to'qishni boshlashdan oldin to'qiladigan bitta yoki bir nechta havoyi halqalar qatorni ko'tarish halqalari deyiladi. Ularning soni to'qiladigan yangi qatorning balandligiga bog'liq. Masalan, xomaki halqasiz ustunchalar to'qishda bitta havoyi halqa, xomakili ustunchalar to'qishda ikkita havoyi halqa yetarli bo'ladi. Yangi qator balandligini hosil qilib beruvchi milk halqani qator oxirida bajarib, keyin to'qimqani aylantirib olgach, yangi qatorni boshlagan ma'qul...

**Dam olish daqiqasi:** Bunda “Soyabon” o'yinidan foydalanish yaxshi samara beradi.

**IV.Mavzuni mustahkamlash:** Yangi mavzu “Chapal chal” usuli orqali mustahkamlanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan yangi mavzuga oid ma'lumotlar aytiladi va to'g'ri ma'lumotga chapak chalinadi. Boshqa ma'lumot bo'lsa chapak chalinmaydi.

**Masalan:** Ilmoqlar, odatda, 12-15sm uzunlikda bo'ladi.

**V. Baholash va xulosalash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra baholanadi va mavzu xulosalanadi.

**Uyga vazifa.** Mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar o'rganib kelish.